



Bo'lajak o'qituvchilarning kognitiv kompetentligini rivojlantirishda motivatsion yondashuvning o'рни va ahamiyati

Abdumanopov Muxammadsodiq Muxammadyusub o'g'li –
Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi,
E-mail: muhammadsodiq1917@gmail.com
ORCID: <https://orcid.org/0009-0001-9382-1101>

Annotatsiya. Ushbu ish bo'lajak o'qituvchilarning kognitiv kompetentligini rivojlantirishda motivatsion yondashuvning o'рни va ahamiyatiga bag'ishlangan. Ishda pedagogik jarayonda motivatsiya bo'yicha asosiy nazariy yondashuvlar ko'rib chiqilgan, talabalar faoliyatini faollashtirish va ularning intellektual mustaqilligini oshirish usullari tahlil qilingan. Maxsus e'tibor motivatsion strategiyalarning tanqidiy fikrlash, ijodiy qobiliyat va pedagogik masalalarni yechish ko'nikmalarini shakllantirishga ta'siriga qaratilgan. Tadqiqot natijalari bo'lajak pedagoglarni tayyorlash dasturlarini ishlab chiqishda va innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etishda foydalanish mumkin.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiyalar, motivatsion yondashuv, kognitiv kompetentlik, innovatsion va ijodiy yondashuv, ijobiy psixologik muhit, reflektiv faoliyat, kasbiy motivatsiya.

Роль и значение мотивационного подхода в развитии когнитивной компетентности будущих учителей

Аннотация. Данное исследование посвящено роли и значению мотивационного подхода в развитии когнитивной компетентности будущих учителей. В работе рассматриваются основные теоретические подходы к мотивации в образовательном процессе и анализируются методы активизации деятельности студентов и повышения их интеллектуальной самостоятельности. Особое внимание уделяется влиянию мотивационных стратегий на развитие критического мышления, творческих способностей и навыков решения

педагогических задач. Результаты исследования могут быть использованы при разработке программ подготовки педагогов и внедрении инновационных образовательных технологий.

Ключевые слова: цифровые технологии, мотивационный подход, когнитивная компетентность, инновационный и творческий подход, позитивная психологическая среда, рефлексивная деятельность, профессиональная мотивация.

The role and significance of the motivational approach in developing the cognitive competence of future teachers

Annotation. This study is devoted to the role and significance of the motivational approach in developing the cognitive competence of future teachers. The work examines the main theoretical approaches to motivation in the educational process, and analyzes methods for activating students' activities and enhancing their intellectual independence. Special attention is given to the impact of motivational strategies on the development of critical thinking, creative abilities, and problem-solving skills in pedagogical tasks. The results of the study can be applied in designing teacher training programs and implementing innovative educational technologies.

Keywords: digital technologies, motivational approach, cognitive competence, innovate and creative approach, positive psychological environment, reflective activity, professional motivation.

KIRISH

Jahon miqyosida jamiyat rivojining turli sohalariga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, motivatsion yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kognitiv kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, pedagogika oliy ta'lim muassasalari o'quv jarayoniga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, talabalarning mediasavodxonligini rivojlantirish, turli pedagogik xavf-xatarlar sharoitida ularda masofaviy ta'limni samarali tashkil etish malakasini tarkib toptirish muhim o'rin egallamoqda. Shuningdek, bo'lajak pedagoglarning ta'limiy faoliyatni amalga oshirishga tayyorligi va qobiliyatini aks ettiruvchi integrativ o'ziga xoslik sifatida motivatsion yondashuv bilan kredit-modul tizimining o'zaro uyg'unligini ta'minlash alohida dolzarblik kasb etmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Respublikamizda kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirishning nazariy asoslari, pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, talabalarning o'quv-bilish faoliyatini takomillashtirishning didaktik parametrlari U.Inoyatov, N.Muslimov, Sh.Muslimov, O.Musurmonova, B.Xodjayev, M.Vahobov, M.Mirsoliyeva, B.Ma'murov, L.Bektursinova, M.Pardayeva, J.Otepbergenov kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan M.Axmetov, A.Bazayeva, L.Bocharova, Ye.Vyazovova, T.Dobridina, I.Dulchayeva, E.Zeyer, T.Korotenko, L.Osipova, A.Piligin, V.Pustovoytov, S.Roslyakova, L.Semina kabi olimlar tomonidan zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlarda talabalarning kasbiy-bilish faolligini shakllantirish, modul-reyting tizimi asosida talabalarning o'quv-bilish kompetentligini tarkib toptirish, informatsion-

ta'limiy loyihalar vositasida talabalarning kognitiv kompetentligini rivojlantirish masalalari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xorijlik olimlardan T.Byuzen, M.Bernis, M.Piyetra, Ye.Terxart, R.Dyunn, T.Mayes, N.German kabi olimlar tomonidan talabalarda super fikrlashni shakllantirish, o'qitishning modulli va axborot texnologiyalari integratsiyasini ta'minlash masalalari o'rganilgan. Motivatsion yondashuv psixologik va pedagogik adabiyotlarda keng o'rganilgan. A.Maslou, D.MakKlelland, E.Diche va R.Rayanlarning nazariyalari motivatsiyani ichki va tashqi manbalarga asoslab o'rganadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ta'lim jarayonida kognitiv kompetentlik – bu shaxsning bilim olish, tahlil qilish, muammolarni hal etish, axborotni qayta ishlash va bilimlarni yangi holatlarga tatbiq etish qobiliyatidir. Bo'lajak o'qituvchilarda ushbu kompetentlikni shakllantirish, ularning kelgusida ta'lim-tarbiya jarayonini samarali olib borishlari uchun muhim omil hisoblanadi. Bu jarayonda motivatsion yondashuv alohida o'rin tutadi.

Motivatsion yondashuv bu talabalarning ichki va tashqi rag'batlarini uyg'otish orqali ularning o'quv faoliyatini faollashtirish, shaxsiy rivojlanish va o'zlashtirish darajasini oshirishga qaratilgan metodologik tamoyillardir. Ushbu yondashuvning asosiy xususiyati o'quvchini faol bilim oluvchi subyekt sifatida shakllantirish, ularning mustaqil fikrlash va kognitiv faoliyatga bo'lgan ehtiyojlarini qo'llab-quvvatlashdan iborat.

Motivatsion yondashuvning o'ziga xos jihatlari quyidagilardan iborat:

Motivatsion yondashuvning o'ziga xos jihatlari

1-jadval

№		
1.	Ichki motivatsiyani shakllantirish	Bo'lg'usi o'qituvchilarda kasbiy faoliyatga, bilim olishga nisbatan ichki ehtiyojni uyg'otish orqali ularning o'z-o'zini anglash va o'z ustida ishlashga bo'lgan qiziqishlari kuchaytiriladi.
2.	Ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga asoslanish	Kasbiy motivatsiyani shakllantirishda o'qituvchilik kasbining ijtimoiy ahamiyati va ma'naviy mas'uliyati haqida fikrlashga undash orqali barqaror motivatsion maydon yaratiladi.
3.	Reflektiv faoliyatni qo'llab-quvvatlash	Talabalarni o'z bilim darajasi va o'quv faoliyatini tahlil qilishga o'rgatish orqali ularning o'z-o'zini baholash va o'zini rivojlantirishga intilishi kuchayadi.
4.	Innovatsion va ijodiy yondashuvga undash	O'quv jarayonida noan'anaviy, interaktiv metodlardan foydalanish talabalarda yangilikka intilish, izlanish va bilimga nisbatan faol munosabatni shakllantiradi.
5.	Individual yondashuvni qo'llash	Har bir talabaning psixologik xususiyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlariga mos tarzda motivatsion mexanizmlarni tanlash, ularning o'quv jarayoniga ongli ravishda jalb qilinishini ta'minlaydi.
6.	Ijobiy psixologik muhit yaratish	Qo'llab-quvvatlovchi va ijobiy muhitda ta'lim olish talabalarni faol ishtirok etishga, mustaqil fikrlashga va yangiliklarni o'zlashtirishga undaydi.

Shu tariqa, motivatsion yondashuv orqali bo'lajak o'qituvchilarning kognitiv kompetentligini shakllantirishda bilim olishga nisbatan ongli, mas'uliyatli va faol munosabatni qaror toptirishga erishiladi. Bu esa nafaqat ularning kasbiy tayyorgarligini, balki ta'lim sifatining umumiy yuksalishini ta'minlovchi muhim omildir.

Motivatsion yondashuv – bu talabalarning o'quv faoliyatiga bo'lgan qiziqishini, ichki ehtiyojlarini va tashqi rag'batlarini uyg'otishga qaratilgan psixologik-pedagogik tizimdir.

Uning asosiy mazmuni shaxsda o'z-o'zini rivojlantirishga, bilim olishga va kasbiy o'sishga yo'naltirilgan barqaror ichki motivatsiyani shakllantirishdan iborat.

Motivatsion yondashuvning mohiyati o'quv faoliyatining natijadorligini oshirish uchun shaxsning faolligini, tashabbuskorligini va o'z bilimlarini chuqur o'zlashtirishga intilishini ta'minlashdan iborat. Bu yondashuv o'qitish jarayonini shaxsga yo'naltirilgan, individual ehtiyoj va qiziqishlarga asoslangan tarzda tashkil qilishga xizmat qiladi.

Motivatsion yondashuv quyidagi mohiyatli tamoyillarga asoslanadi:

- O'quv faoliyatining maqsadi va mazmunini anglash;
- O'z-o'zini rivojlantirish ehtiyoji;
- Ichki va tashqi rag'batlarning uyg'unligi;
- Faoliyat natijalarini baholash va mustahkamlash.

Motivatsion yondashuvni amalga oshirishda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

Motivatsion yondashuvning shakllari

2-jadval

№	Shakl	Mazmuni
1.	Individual shakl	har bir talabanning shaxsiy xususiyatlari va ehtiyojlariga asoslangan yondashuv
2.	Guruhli shakl	kichik guruhlarda hamkorlikda o'rganish orqali o'zaro rag'batlantirishga erishiladi
3.	Jamoaviy shakl	umumiy maqsad sari yo'naltirilgan birgalikdagi faoliyat orqali motivatsiyani kuchaytirish
4.	O'yinga asoslangan shakl	o'yin elementlari orqali o'quv faoliyatini qiziqarli va samarali tashkil qilish

Motivatsion yondashuvda foydalaniladigan asosiy metodlar quyidagilardir:

Motivatsion yondashuvning metodlari

3-jadval

№	Metodlar	Mazmuni
1.	Rag'batlantirish metodi	maqto'v, baho, mukofotlar orqali tashqi motivatsiyani qo'llab-quvvatlash
2.	Muammoli ta'lim metodi	murakkab masalalar orqali intellektual izlanish va qiziqishni oshirish
3.	Interaktiv metodlar	debat, klaster, akvarium, "aqliy hujum" kabi metodlar orqali faol ishtirokni ta'minlash
4.	Refleksiya metodi	talaba o'z faoliyatini tahlil qilishi va o'zgarishga intilishi uchun imkon yaratish
5.	O'z-o'zini motivatsiyalash metodi	shaxsiy maqsadlar belgilash va ularga erishish yo'lini o'rganish

Ushbu yondashuvni amalga oshirishda quyidagi vositalardan foydalaniladi:

Motivatsion yondashuvning vositalari

4-jadval

№	Vositalar	Mazmuni
1.	Didaktik materiallar	vizual va audiovizual vositalar, interaktiv darsliklar, simulyatorlar
2.	Axborot-kommunikatsion texnologiyalar	onlayn platformalar, mobil ilovalar, test tizimlari
3.	Baholash vositalari	reyting tizimi, portfolio, testlar, diagnostik kartalar
4.	Rag'batlantirish vositalari	sertifikatlar, sovrinlar, ijtimoiy e'tirof shakllari
5.	Psixologik-ijtimoiy muhit	qo'llab-quvvatlovchi muhit, ijobiy kommunikatsiya,

		motivatsion murabbiylik
--	--	-------------------------

Bo'lajak o'qituvchilarning kognitiv kompetentligini rivojlantirishda motivlashtirishning samaradorligi erishish mumkin bo'lgan natijalar bilan erishilgan natija o'rtasidagi munosabatlarni ifodalashi, bo'lajak o'qituvchilarning kognitiv kompetentligini rivojlantirish jarayonlarida natijaviylikni ta'minlash uchun quyidagi shartlarning bajarilish zaruriyatini belgilaydi:

- talabalarining bilimi, ko'nikma va malakasi, tajribasi hamda o'z faoliyati samaradorligi haqidagi fikrlariga ilmiy yondashish;
- kognitiv kompetentlikni rivojlantirish jarayonlari hamda tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarida motivlarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish;
- talabalarining kognitiv kompetentligini rivojlantirish uchun zaruriy va qulay shart-sharoitlar yaratuvchi ijodiy muhitni vujudga keltirish;
- kognitiv kompetentlikni rivojlantirish jarayonlarining o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini inobatga olish;
- o'qituvchilarda kognitiv kompetentlikni rivojlantirish jarayonlariga murakkab innovatsion pedagogik tizim sifatida yondashish;
- kognitiv kompetentlikni rivojlantirish jarayonlarida o'qituvchilarda o'z faoliyati samaradorligini o'rganish, tahlil qilish va obyektiv baholash ko'nikmalarini shakllantiruvchi refleksiv yondashuvni joriy etish;
- kognitiv kompetentlikni rivojlantirish jarayonlarida shaxsga yo'naltirilgan ta'sirni ahamiyatini va o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish.

Mazkur belgilangan shartlarga va yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga asosanib aytishimiz mumkinki, talabalarda kognitiv kompetentlikni rivojlantirishda motivlashtirishning samaradorligini kognitiv kompetentlikni rivojlantirish jarayonlarida bo'lajak o'qituvchilarda kognitiv kompetentlikning rivojlanish dinamikasi yoki ularda ijobiy motiv hisoblangan muvaffaqiyatga intilish motivlarining shakllanganlik darajasi ko'rsatkichlari bo'yicha baholash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Talabalarda kognitiv kompetentlikni rivojlantirish yo'nalishidagi pedagogik jarayonlarni tashkil etishda alohida e'tibor qaratilishi zarur bo'lgan omillardan biri pedagogik jarayonlarni samaradorligining motivlashtirishga bog'liqligidir.

Motivlashtirish o'qituvchilarda yetarli darajada faollikni ta'minlash uchun zarur. Bunda motivlarning xususiyatlarini hisobga olish, qanday motivlar o'qituvchilarni uzluksiz malaka oshirishga yo'naltirishi va qaysilari ularning faolligini ta'minlashga, mustaqil o'rganishga, mustaqil ma'lumot olishga va o'zini-o'zi tarbiyalashga imkoniyat yaratishini bilish, o'qituvchilarning bilm, ko'nikma va malakasi hamda tajribasi darajasini oldindan aniqlash o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Demak, bo'lajak o'qituvchilarda kognitiv kompetentlikni rivojlantirish jarayonlarida samaradorlikka erishish uchun motivlarning turlari va ularning o'ziga xos xususiyatlarini, o'qituvchilarda mavjud bo'lgan ehtiyojlarni, ularning bilimi, ko'nikma va malakasi hamda tajribasi darajasini, dunyoqarashi va qiziqishlarini, o'qituvchilar yashayotgan va ishlayotgan muhitning holatini, tarbiyaviy munosabatlarni, shaxsga yo'naltirilgan ta'sirning o'ziga xos xususiyatlarini, refleksiv va tizimli yondashuvlarning hamda innovatsion faoliyatning zaruriyatini motivlashtirish jarayoni samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar sifatida inobatga olinishi zarur.

Bo'lajak o'qituvchilarda kognitiv kompetentlikni rivojlantirishda motivlashtirish jarayoni samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni inobatga olgan holda, samaradorlikning o'zaro bog'liq bo'lgan quyidagi ko'rsatkichlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- talabalarining bilimi, ko'nikma va malakasi hamda tajribasi darajasini, duyoqarashi, tasavvuri, qiziqishi va imkoniyatlarining belgilangan maqsadlarga mos kelishini ifodalovchi xususiyatlar;

- belgilangan maqsadlarga muvaffaqiyatli erishish natijalariga mos keluvchi motivlar, omillar va vositalarning o'ziga xos xususiyatlari;
- talabalar uchun zaruriy va qulay shart-sharoitlar yaratuvchi ijodiy muhitning o'ziga xos xususiyatlari;
- davlat, jamiyat va shaxs ehtiyojlarining rivojlanishi, kognitiv kompetentlikni rivojlantirish jarayonlari ishtirokchilarining ehtiyojlari va qoniqish hosil qilish darajasi;
- kognitiv kompetentlikni rivojlantirish jarayonlari ishtirokchilarining ilmiy-metodik ta'minoti darajasi;
- kognitiv kompetentlikni rivojlantirish jarayonlarini tashkil etishda refleksiv yondashuv, tizimli yondashuv, innovatsion yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'sir va boshqa yondashuvlarning o'ziga xos xususiyatlari;
- axborotlarning ishonchliligi va yangiligi.

Talabalarda kognitiv kompetentlikni rivojlantirishda motivlashtirish jarayoni samaradorligining o'zaro bog'liq va aloqador bo'lgan ushbu ko'rsatkichlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, axborotlarning ishonchliligi va yangiligi ham asosiy ko'rsatkichlardan biri sifatida keltirilmoqda. Bu bo'lajak o'qituvchilarda kognitiv kompetentlikni rivojlantirish yo'nalishidagi pedagogik jarayonlarni tashkil etishda alohida e'tibor talab qiluvchi omillardan biri motivlashtirish jarayonida axborotlarning ahamiyati ekanligini tasdiqlaydi.

Motivlashtirish jarayonida axborotlar bilan ishlash:

- talabalarining mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning natijalari, fan-texnika yutuqlari bo'yicha tushunchalarini aniqlash;
- tasavvuri va dunyoqarashi, qiziqishi va imkoniyatlarini o'rganish;
- belgilangan maqsadlarga muvaffaqiyatli erishish natijalariga mos keluvchi motivlar, omillar va vositalarning turlari va ularning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish va tahlil qilish;
- talabalarining ehtiyojlari va qoniqish hosil qilish darajasini aniqlash;
- bo'lajak o'qituvchilarga qo'yilayotgan zamonaviy talablar bo'yicha zaruriy ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va uzatishdan iborat bo'lib, o'qituvchilarda uzluksiz malaka oshirishga bo'lgan ijodiy motivlarni shakllantirish va ularning o'quv faoliyatini muvofiqlashtirish jarayonida qo'llaniladi.

XULOSA

Bo'lajak o'qituvchilarda kognitiv kompetentlikni rivojlantirish jarayonlarining samaradorligini ta'minlashda o'qituvchilarning faoliyati, ta'lim-tarbiya jarayonining holati, o'qituvchilarning ta'lim-tarbiya jarayoniga bo'lgan munosabati, ularning o'zaro munosabatlari, shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligiga ta'sir ko'rsatayotgan boshqa omillar, o'qituvchilarning tasavvuri, tushunchalarining rivojlanishi, dunyoqarashining o'zgarishi to'g'risida yetarli axborotlar to'plash zarur.

Bo'lajak o'qituvchilarda kognitiv kompetentlikni rivojlantirishda pedagogik jarayonlar to'g'risida hamda bo'lajak o'qituvchilarning tasavvuri, tushunchalarining rivojlanishi, dunyoqarashining o'zgarishi bo'yicha uzluksiz ravishda axborotlar to'plash va ularni chuqur o'rganish, tahlil qilish hamda obyektiv baholash eng asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur vazifalarni amalga oshirish asosida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonlarini takomillashtirish va rivojlantirish yo'llari, o'qituvchilarda ijobiy motivlarni shakllantirish va rivojlantirish omillari va vositalari aniqlanadi hamda samaradorlik ta'minlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdullayev S.X. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. – Toshkent, 2015. – 120 b.
2. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2018. – 176 b.
3. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2017. – 152 b.
4. Muslimov N.A. Kasbiy kompetentlik va uning pedagogik asoslari. – Toshkent, 2016. – 144 b.
5. Ziyomammedov B., Tojiyev M. Pedagogik mahorat asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – 180 b.
6. Sharipov Sh.S. O'qituvchining kasbiy kompetentligini rivojlantirish nazariyasi. – Toshkent, 2020. – 132 b.
7. Xoliqov A.A. Ta'lim jarayonida motivatsiya va kognitiv faollik. – Toshkent: Innovatsiya, 2021. – 128 b.
8. Ibragimov X.I. Pedagogik psixologiya. – Toshkent: Sharq, 2014. – 256 b.
9. Saidahmedov N.S. Ta'limda innovatsion yondashuvlar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. – 160 b.
10. Vygotskiy L.S. Tafakkur va nutq. – Toshkent: Fan, 2010. – 240 b.